



FOYDALI QAZILMALARNI KAVLAB OLGANLIK UCHUN SOLIQLAR (NKMK MISOLIDA)

Bank-moliya akademiyasi magistranti
Yusupov Mironshox Isomiddin o'g'li
[Yusupov mi@gmail.com](mailto:Yusupov_mi@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistondagi NKMK misolida yer osti boyliklarini qazib olishda soliqlarning qo'llanilishini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishning asosiy maqsadi zamonaviy amaliyot va muammolarni aniqlash, shuningdek, ushbu amaliyotni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot davomida yer osti boyliklarini qazib olishda qo'llaniladigan soliq turlari bo'yicha adabiyotlar o'rganilib, bu boradagi xalqaro tajriba tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: korxonalar, samaradorlik, innovatsiya, samaradorlik ko'rsatkichlari, fundamental tadqiqotlar.

Annotation: This scientific article is devoted to the analysis of the application of taxes in the mining of underground assets on the example of the NKMC in Uzbekistan. The main purpose of the work is to identify modern practices and problems, as well as develop recommendations for improving this practice. During the study, literature on the types of taxes used in the mining of underground resources was studied and the international experience in this area was analyzed.

Keywords: enterprise, efficiency, innovation, performance indicators, fundamental research.

Kirish O'zbekistonda foydali qazilmalarni qazib olishdan olinadigan soliqlar mavzusining dolzarbligi bir qator omillar bilan tasdiqlanadi. Birinchidan, sanoat mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutib, yalpi ichki mahsulotga salmoqli hissa qo'shib, ko'plab aholi bandligini ta'minlamoqda. O'zbekiston Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida tog'-kon sanoatining ulushi 10 foizdan ortiqni tashkil qiladi.

Ikkinchidan, mineral resurslar sektori energiya va metallarning jahon bozoridagi narxlariga ta'sir qiladi. Bu milliy iqtisodiyot uchun beqarorlikni keltirib chiqaradi va xavflarni yumshatish va sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun moslashuvchan soliq siyosatini talab qiladi.

Uchinchidan, O'zbekistonning iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish istagini hisobga olgan holda mineral resurslarga soliq solish



alohida ahamiyatga ega. Buning uchun ushbu sohaga sarmoya kiritishni qo'llab-quvvatlash va uning rivojlanishini rag'batlantirish uchun soliq stavkalari va soliq mexanizmlarini har tomonlama tahlil qilish va optimallashtirish zarur.

Umuman olganda, O'zbekistonda NKMK misolida foydali qazilmalarni qazib olish soliqlarini o'rganish mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi kontekstida dolzarb va talabga ega. Amaldagi soliq mexanizmlari samaradorligini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va milliy iqtisodiy siyosat maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Har doim resurslar cheklanganligi sababli ularni tejash davlatning asosiy maqsadi bo'ladi. Hukumatlar buning uchun ko'plab chor-tadbirlar qo'llab kelmoqdalar. Shu asnoda Aksel, Greenelar tomonidan qayd etilishicha, xukumat atrof muhit bilan bog'liq muammolarni kamaytirish choralari doimiy izlaydi¹. Bunda hukumat bir qator vositalarga ega, masalan axborot dasturlari, innovatsion siyosat, atrof muhit uchun subsidiyalar va atrof muhit solig'i. Xususan soliqlar ushbu vositalarning eng muximi xisoblanishi haqida ko'plab ijobiy fikrlar bildirishgan.

T.Jo'rayevning qayd etilishicha, "Soliqlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq, resurs soliqlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ular renta to'lovidir. Boshqacha aytganda, bu qayta tiklanmaydigan tabiiy, yer va suv zaxiralaridan foydalanganlik uchun o'ziga xos to'lov bo'lib, u xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas"².

S.Bard va L.Pavlovalarning fikriga ko'ra, "Renta to'lovlarining xususiyati shundan iboratki, ularni joriy qilish tabiiy resurslardan daromad olishni ko'zlamasdan, balki, tabiatdan foydalanuvchilar umumxalq mulki ob'ektlaridan oqilona foydalanishlari zarur"³.

Niyazmetov fikrlariga ko'ra, "To'laqonli soliq siyosati olib boradigan xar qanday davlatda tabiatdan oqilona foydalanishni soliq vositasida tartibga solish muommosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, soliq siyosatini yuritishda davlat fiskal, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlar qatorida ekologik maqsadni xam ko'zlaydi"⁴.

O'z navbatida, A.Smit "Renta mahsulot qiymatining ulushiga nisbatan

¹ Green J., Jenkins H. How audiences create value and meaning in a networked economy //The handbook of media audiences. – 2011. – С. 109.

² Jo'rayev T. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida. //Toshkent haqiqati. 2003 yil 23 sentyabr.

³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // –М.: "Кнорус". 2004. С.63

⁴ Ниязметов И., (2018) "Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш" докторлик диссертацияси.



ortiqcha bo‘lib, qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalariga sarflangan kapitalni qoplash uchun etarli bo‘ladi»⁵, deb hisoblagan. Uning fikricha belgilangan soliqlar asosida yer qaridan foydalanish jarayonidagi barcha sarf harajatlar qoplanadi.

K.Marks differensial er rentasi qiymati “Qo‘shimcha foyda, agar u aylanish jarayonining tasodifiy holatlari tufayli emas, balki odatdagidek yaratilgan bo‘lsa, har doim ikki teng miqdordagi kapital va mehnat mahsuli o‘rtasidagi farq sifatida ishlab chiqariladi”⁶, deb hisolagan.

Yana bir olim A.N. Goloskokova esa, "Ijarani xarajatlarini foydadan adolatli ajratish (va er osti boyliklari egasi sifatida ijara daromadini davlat foydasiga olib qo‘yish) qazib oluvchi sanoatni soliqqa tortishda asosiy masaladir”⁷ deb takidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy va tizimli tahlil usullardan foydalanilgan. Adabiyotlarni tahlil qilishda Web of Science ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanilgan.

Foydali qazilma tushunchasi, ularning tarkibi, foydali qazilmalarni kovlab olganlik uchun solig‘ini amaliyotga joriy qilish asoslari, qazib oluvchi yuridik shaxslarning ko‘chmas mulklarini soliqqa tortish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada yetuk iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan va statistik ma’lumotlar asosida tahlillar olib borilgan. Maqolada foydali qazilma boyliklarni qazib oish tartibi va ushbu qazib olingan mol-mulklariga soliq solish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki soliqlar mamlakatimiz davlat byudjeti daromadining asosini tashkil etadi. Ular orasida yer qaridan foydalanganlik uchun undiriladigan soliq asosiylaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning Soliq kodeksiga ko‘ra Soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga nisbatan aniqlanadi⁸. Oltin, kumush, platina, palladiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin va molibden (bundan buyon ushbu moddada metallar deb yuritiladi) bo‘yicha soliq bazasi ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibidagi har bir metallga nisbatan aniqlanadi.

⁵ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Директ медиа Паблишинг, 2008. – 657 с

⁶ Маркс К. Соч. в 50 т. Т. 25 / К. Маркс, Ф. Энгельс. – 2-е изд. – М.: Госполитиздат, 1968.

⁷ Голоскоков А.Н. Подходы к дифференциации налогообложения в газовой отрасли. // Электронный научный журнал Нефтегазовое дело. – 2009. – № 2.

⁸ <https://lex.uz/docs/-4674902>



Metallarni qazib olish (ajratib olish) chog'ida quyidagilar soliq bazasi bo'ladi:

1) agar ushbu qismning 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, rudani (konsentratni) realizatsiya qilish chog'ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat rudaning (konsentratning) tarkibida mavjud bo'lgan metall hajmiga nisbatan qo'llaniladigan soliq (hisobot) davri uchun o'rtacha arifmetik birja bahosi va o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o'rtasida olingan yuqoriroq narx bo'yicha hisob-kitob qilinib, ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va (yoki) transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanadi;

2) oltin va misni realizatsiya qilish chog'ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibida mavjud bo'lgan metall hajmiga nisbatan qo'llaniladigan soliq (hisobot) davri uchun o'rtacha arifmetik birja bahosi va o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o'rtasida olingan yuqoriroq narx bo'yicha hisob-kitob qilinib, ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanmaydi. Bunda soliq to'lovchi oltin va mis bo'yicha soliq bazasini ushbu xarajatlarni chegirib tashlagan holda belgilashga haqli;

3) mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida ajratib olingan kumushni, platinani, palladiyni, ruxni, qo'rg'oshinni yoki molibdenni realizatsiya qilish chog'ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat soliq (hisobot) davrida o'rtacha arifmetik birja bahosi va o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o'rtasida olingan yuqoriroq narx bo'yicha hisob-kitob qilinib, soliq to'lovchi tomonidan ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va (yoki) transportda tashish uchun qilingan xarajatlar chegirib tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga ko'ra yer qaridan qazib olingan qazilmalar uchun belgilangan soliq stavkalari 4.1-jadvalda ko'rsatilgani kabi belgilangan.



4.1-jadval.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qaridan olinadigan qazilma boyliklari uchun belgilangan soliq stavkalari⁹.

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Energiya manbalari	Neft, tabiiy gaz, gaz kondensati	10
		Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	5
		Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
		Ko'mir, yonuvchi slanslar	4
2.	Qimmatbaho metallar	Oltin, kumush, palladiy, platina va platina guruhi, osmiy va boshqa qimmatbaho metallar	7
3.	Rangli metallar	Mis, qo'rg'oshin, rux, molibden, nikel, kobalt, qalay, surma, simob, alyuminiy	7
		Boshqa rangli metallar	10
4.	Radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	Uran, toriy, radiy	8
		Volfram	2,7
		Reniy, selen, tellur, indiy, vismut, tantal, niobiy, berilliy, litiy, rubidiy, seziy, galiy, titan, sirkoniy, gafniy, talliy, kadmiy	8
		Lantan va lantanoidlar, itriy, skandiy	8
		Boshqa radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	8
5.	Nodir tosh xomashyosi	Feruza, listvenit, rodonit, zmeyevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit va boshqa qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	10
6.	Qora metallar	Temir	2
		Titan, marganets, xrom, vanadiy va boshqa qora metallar	4
7.	Kon-kimyo xomashyosi	Mineral pigmentlar	5,5
		Yod	4,8
		Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o'g'itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xomashyosi	3,5, biroq 5 600 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan

⁹ <https://lex.uz/docs/-4674902>



8.	Kon-ruda xomashyosi	Eruvchan shpat, dala shpati xomashyosi, kvarts va kvartsit, kaolin (realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha), tabiiy grafit	7,9
		Shisha xomashyosi, kvarts qum, brusit marmar	3
		Talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xomashyosi, felzit	4
		Serpentinit va boshqa kon-ruda xomashyosi	5
9.	Noruda qurilish materiallari	Sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xomashyosi	5
		Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	6000 so'm/tonna*
		Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, marmar, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	5, biroq 5 600 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
		Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 14 500 so'm/tonna dan kam bo'lmagan
		G'isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi	5, biroq 4 200 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
		Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh, farfor xomashyosi, keramzit xomashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezibazalt, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit-gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar	5
10.	Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun soliq stavkasining 50 foizi	

Shuningdek, geologiya-qidiruv ishlarini olib boruvchi yuridik shaxslar,



shuningdek ular jalb etgan pudrat va subpudrat tashkilotlari:

- geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus texnika vaqtincha olib kirilganda konlarni qidirish, qidirish va qazib olish davrida davriy bojxona to‘lovlari;

- belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha konlarni qidirish, qidirish va qazib olish ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus texnikalarni import qilishda bojxona boji.

Bundan tashqari, 2021-yil 1-oktabrdan boshlab tabiiy gazni eksportga sotishda aksiz solig‘i stavkasi 0% miqdorida belgilanishi tartibi joriy etildi. Shuningdek, tabiiy gazni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda yuridik shaxslar bojxona bojidan ozod etiladi.

Avvalgi boblardan ham bilamizki O‘zbekistonda tabiiy boyliklarni, xususan oltinni qayta ishlash bo‘yicha eng katta ko‘rsatgich bu shubhasiz NKMK zimmasiga to‘g‘ri keladi. Tabiiyki shu o‘rinda davlat byudjetiga soliq to‘lash ko‘rsatgichlari bo‘yicha ham bunday kompaniyalar yetakchilik qiladi. Masalan 2020-yilda Moliya Vazirligi e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra mamlakatimizda eng ko‘p soliq to‘lovchi tashkilot bu NKMK bo‘lgan. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra bu yilda yirik soliq to‘lovchilar soliq tushumlari umumiy miqdorining 63,3 foizi mazkur 10 ta korxonaga hissasiga to‘g‘ri keldi. Quyidagi top o‘ntalikda Navoiy kon-metallurgiya kombinati yetakchilik qilib, korxonaning hissasi 50 foizni tashkil qildi:

1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK;
2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ;
3. “O‘ztransgaz” AJ;
4. “O‘zbekneftgaz” AJ;
5. “O‘ZBAT” AJ QK;
6. “Lukoil”;
7. “O‘zavto Motors” AJ;
8. “O‘zbektelekom” AJ;
9. “Hududgazta‘minot” AJ;
10. “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ.

Berilgan ma‘lumotlardan ham ko‘rishimiz mumkinki yuqorida keltirilgan barcha yirik soliq to‘lovchilar tabiiy boyliklarni qazib olish va qayta ishlash, umumiy holatda yer qaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar hisoblanadi.

XULOSA

O‘zbekistonda foydali qazilmalarni qazib olishda soliqlarni qo‘llash



amaliyotini takomillashtirishning istiqbolli yo‘llari belgilandi. Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, soliq tartib-qoidalarini optimallashtirish, soliq jarayonlarining shaffofligi va adolatliligini ta‘minlash, innovatsion va ekologik texnologiyalarni rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish asosiy masalalardan iborat.

Olingan natijalarga asoslanib, tog‘-kon sanoati sohasida soliq tizimini isloh qilishda kompleks yondashuv zarurligi to‘g‘risida xulosa qilishimiz mumkin. Bu nafaqat soliq samaradorligini oshirish, balki sohani barqaror rivojlantirish, sarmoyalarni jalb etish, kompaniyalarning ekologik va ijtimoiy mas‘uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-3480384>
2. Amundsen ES, Schb R.(1999): Environmental taxes on exhaustible resources. Eur J Polit Econ. ; 15.2: 311–329. [https://doi.org/10.1016/S0176-2680\(99\)00008-7](https://doi.org/10.1016/S0176-2680(99)00008-7)
3. Green J., Jenkins H. How audiences create value and meaning in a networked economy //The handbook of media audiences. – 2011. – С. 109.
4. Jo‘rayev T. Soliq siyosatini takomillashtirish yo‘lida. //Toshkent haqiqati. 2003 yil 23 sentyabr.
5. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // .–М.: “Кнорус”. 2004. С.63
6. Ниязметов И., (2018) “Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш” докторлик диссертацияси.
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Директ медиа Пабблишинг, 2008. – 657 с
8. Маркс К. Соч. в 50 т. Т. 25 / К. Маркс, Ф. Энгельс. – 2-е изд. □ М.: Госполитиздат, 1968.
9. Голоскоков А.Н. Подходы к дифференциации налогообложения в газовой отрасли. // Электронный научный журнал Нефтегазовое дело. □ 2009. – № 2.
10. Серкова Арина Игоревна, // Экологические налоги на примере германии и стран ЕАЭС.
11. Афонина И.С // Роль налогов в экологическом развитии России
12. Громова А.И. Опыт внедрения принципов «зеленой» экономики в мировой экономике // Креативная экономика. 2014. № 8 (92). С. 113.
13. Баландина А. С. Сравнительный анализ налога на дополнительный доход, налога на финансовый результат и налога на добычу полезных ископаемых при разработке нефтегазовых месторождений //Сибирская



- финансовая школа. – 2017. – №. 3. – С. 46-49.
14. Громов Владимир Владимирович. Экологические налоги: классическое и современное понимание сущности // Статистика и экономика. 2014. №4. С.41- 45.
 15. Громов Владимир Владимирович. Экологические налоги: классическое и современное понимание сущности // Статистика и экономика. 2014. №4. С.41- 45.
 16. И.А. Макарова. Оценка эффективности экологических налогов с позиции «загрязнитель платит» в скандинавских странах: методика и 279 № 6 результаты исследования // Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2017. № 40 С.124-140.
 17. Экологические налоги // URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Экологические_налоги.
 18. Шувалова Е.Б., Гордиенко М.С., Сибатулина Н.В. Эволюция системы экологических налогов, сборов и платежей в Российской Федерации // Статистика и экономика. 2017. №6. С.32-38.
 19. Громов Владимир Владимирович. Экологические налоги: классическое и современное понимание сущности // Статистика и экономика. 2014. №4. С.41- 45
 20. Roy E. Cordato. The Polluter Pays Principle: A Proper Guide for Environmental Policy // Institute for Research on the Economics of Taxation Studies in Social Cost, Regulation, and the Environment: No. 6. P.15.
 21. Ecological tax reform in Germany: handling two hot potatoes at the same time //Christiane Beuerman, Tilman Santarius Energy, Transport, and Climate Policy Division, Wuppertal Institute for Climate, Environment and Energy, P.O. Box 100480, D-42004 Wuppertal, Germany. P.927.
 22. Muallif tomonidan “The People’s Republic of China Tax Facts and Figures 2019” jurnali ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
 23. Hallmark T. Political Risk: Assessing dangers in international exploration, development // Offshore Magazine. - 1991. - №5. - 27-34 p.
 24. <https://lex.uz/docs/-4674902>
 25. <https://lex.uz/docs/-4674902>
 26. <https://www.ngmk.uz/uz/home/prensa/1551-nkmk-oltin-ishlab-chiqarish-boyicha-dunyoda-yetakchilardan-biri.html>